



INSONLARDA INTERNET VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN DAVRIY FOYDALANISH JARAYONI ORTIDAN YUZAGA KELADIGAN YUTUQ VA KAMCHILIKLAR TAHЛИLI

Daminov Shakhriyor

Toshkent davlat transport universiteti(Uzbekistan)

daminovshakhriyor@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7939804>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil
Ma'qullandi: 13-May 2023 yil
Nashr qilindi: 16-May 2023 yil

KEY WORDS

elektron vosita, axborot texnologiyalari, voyaga yetmagan, tub burilish, ta'lim sohasi, qaramlik darajasi, salbiy ta'sir

ABSTRACT

Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad hozirgi paytda hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib borayotgan elektron vositalar, jumladan axborot texnologiyalarining bizga va ayniqsa voyaga yetmagan bolalarga ko'rsatayotgan bilvosita yaxshi va yomon ta'sirlarini muhokama qilishdan iborat. Aslida zamonaviy bu qurilmalar yaratilib insonlarlar hayotida juda katta tub burilish yasab yubordi, jumladan ta'lim sohasida tutgan o'rnnini beqiyos deb hisoblasak adashmagan bo'lamiz, shu bilan birga insonlarning bu qurilmalarga qaramlik darajasi kundan kunga ortib bormoqda. Shuningdek ushbu ishda doimiy ravishda bu qurilmalardan foydalanish ortidan paydo bo'layotgan salbiy ta'sirlar va oqibatlari haqida ham so'z yuritamiz.

Ba'zi manbalarga qaraganda 19-asrning boshlarida telefon va radioaloqa sohasida dastlabki qadamlar tashlangan, shu asrning oxiriga kelib, insoniyat rivojlanishida kompyuter davrining boshlanishi muhim o'rinni tutganligini takidlash mumkin [3,4]. Dastlabki kompyuterlar paydo bo'ldi, keyinchalik ular "birinchi avlod" ga tegishli deb tasniflana boshladilar. Shuningdek olimlar bu sohada o'z ishlarini muvaffaqiyatli olib bordilar misol uchun Tesla 1890 yilda simsiz aloqa uchun nazariy asos yaratdi. Radioning otasi sifatida tanilgan Markoni birinchi marta simsiz signallarni 1894 yilda ikki chaqirim uzoqlikda uzatgan. Mobil texnologiyalar insoniyat jamiyatiga katta o'zgarishlarni olib keldi. Bundan tashqari davlat idoralarida ham mobil texnologiyalardan foydalanish birinchi jahon urushida misli ko'rilmagan muvaffaqiyat keltirganligini ko'rib chiqishimiz mumkin. So'nggi yillardagi mobil aloqa texnologiyalari va axborot texnologiyalarining birlashishi mobil texnologiyalar sanoatining rivoji yo'lidagi muhim qadamlardan biri edi [1-3]. Uyali aloqa va mobil hisoblash texnologiyalari integratsiyalashganligi sababli, mobil texnologiyalar asta-sekin rivojlandi va mobil texnologiyalarning qo'llanishi va rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan uyali aloqa o'zaro aloqani va har qanday vaqtida, har qanday joyda aloqa va axborot almashinuvni uchun imkoniyat yaratdi [1-6].

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya texnologiyalarining birlashishi ijtimoiy hayotimizga katta o'zgarishlar kiritmoqda. Mobil texnologiyalar va internet axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Yuqori qamrovli mobil aloqa tarmoqlari, yuqori tezlikdagi simsiz tarmoqlar va har xil turdagи mobil axborot terminallari yordamida mobil texnologiyalardan foydalanish mobil aloqalar uchun keng maydon ochdi [4,5]. Bugungi kunda hech kim o'z hayotini internetsiz tasavvur eta olmaydi. U bizning hayotimizga juda tez kirib keldi va u yerda o'zining mustahkam o'rnnini egalladi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Bu yerda bir nechta statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak:

- hozirgi kunda 95% yoshlar internetdan foydalanadi;
- katta yoshdagи insonlarning esa 85% internetdan foydalanadi;
- har yettinchi shaxs facebookda ro'yxatdan o'tgan;
- 2016 yilgacha. deyarli 3 milliard odamlar internetdan foydalanar edilar, hozirda esa bu ko'rsatkich qariyb bir yarim barobarga ortgan;
- agar bir lahzaga internetga alohida mamlakat sifatida taqdim etilsa, u holda iqtisodiy darajasi bo'yicha 5-o'rinni egallab, shu bilan birga Germaniya davlatidan oldinda turadi.

Aslida internet - bu insoniyatning ulkan yutug'i. Uning yordami bilan biz filmlarni tomosha qilishimiz, yangi tanishlar topishimiz, uzoq masofada yashaydigan qarindoshlarimiz va do'stlarimiz bilan muloqot qilishimiz, bizni qiziqtirgan savollarga javob izlashimiz, biz uchun murakkab va tushunarsiz muammolarni hal qilishimiz, foydali va qiziqarli ma'lumotlarni topishimiz, turli voqealar va yangiliklarni o'rganishimiz mumkin. Internet bizning shaxsiy rivojlanish jarayonimizda yordam beradi. Internetning asosiy afzalliklaridan biri bu "chegaralarning yo'qligi". Biz boshqa qit'alarda va boshqa mamlakatlarda yashaydigan do'stlarimiz bilan oson muloqatda bo'la olishimiz va yangi bilimlarni oson va arzon narxlarda o'zlashtirishimiz imkonini beradi. Shuningdek chet tillarni o'rganish jarayonida onlayn kurslarni xizmati beqiyos, bundan tashqari ko'pchilik onlayn kasblar orqali yaxshigina daromadli ishlarda ishlarlardan qo'shilishimiz mumkin.

Ammo, afsuski, internet va mobil aloqa vositalarini zararli tomonlari ham kam emas. Eng avvalo, asosiy muammolaridan biri bu insonlarning internetga qaramliklaridir. Dunyo bo'ylab odamlarning 10% dan ko'proq qismi internetga qaram ekanligi allaqachon isbotlangan. Ular buni oila, uy, suv va oziq-ovqat kabi muhim va zarur deb hisoblashadi. Ba'zi mamlakatlarda internetga qaramlik allaqachon milliy muammo sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, eng ko'p kuzatilgan muammolar orasida kompyuterdan uzoq vaqt davomida foydalanishdir, bu odamlarning ko'rish qobiliyati yomonlashishi va tayanch-harakat tizimining ishlash muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Internetning yana bir kamchiligi shundaki, bu yerda firibgarlik bilan shug'ullanayotgan firibgarlarning ko'p uchrab turishidir. Ular, o'z navbatida, sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni olib, o'zlarining shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishilari mumkin.

Bu yerda 1-diagramma ba'zi statistik ma'lumotlar diagramma shaklida keltirilgan, bunda internetdan foydalanuvchilar o'zlarining yoshlari bo'yicha sinflarga ajratilgan.



1-diagramma odamlarning yosh kategoriyalari bo'yicha bir sutka davomida necha soat internet va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'rsatkichi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlarga qaraganda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan odamlarda internetdan foydalanish ulushi (43%) sezilarli darajada katta, 10 yoshdan 18 yoshgacha esa bu ko'rsatkich (27%) ga teng, qolgan odamlarda esa bu qiymat bir oz pastroq ekanligini ko'rshimiz mumkin.

XULOSA

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarini shiddat bilan rivojlanayotganini takidlamay ilojimiz yo'q, har qaysi soha internet ,kompyuter degan tushunchalar bilan chambarchas bog'lanib ulgurdi. Bunda zamonaviy texnologiyalarning insonlarga keltirayotgan foydasi va qulayliklari ko'lami beqiyos. Ammo bu texnologiyalarning ham o'ziga yarasha kamchiliklari va insonlar salomatligi uchun ma'lum miqdorda zararlari mavjud. Agarda uning foydali va kamchilik jihatlarini solishtiradigan bo'lsak uning foydali tomonlari beqiyos bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. www.wikipediya.com
2. <https://kompy.info/bolalarning-yosh-xususiyatlari-va-internet.html>
3. <https://odam.uz/Qiziqarli/internet-va-bolalar-xavflar-real>
4. <https://elibrary.namdu.uz/Namdu%20professor%20o'qituvchilar%202/либраря%202/Y unusova%20Gulshoda%20Nazihovna%20mybimm%20monografiya1-1-2.pdf>
5. <http://www.scienceeisar.com> The effects of mobile phone / tablet use on preschool children
6. The Journal of Medical Research 2019; 5(4): 159-161 Impact of Mobile Phone Usage on Some Health Aspects of Children and Adolescents